

GENDER TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti milliy g‘oya, ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender tushunchasining mazmuni hamda shakllanishi va zamonaviy jamiytdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Gender-inson jinsining ijtimoiy-madaniy va ma’naviy jihatini ifoda qiluvchi tushuncha. Gender-erkaklik va ayollik rollari va biologik farqlar, balki ijtimoiy va madaniy omillar orqali shakllanadi. Jamiyatimizda genderni teng tutish, nafaqat ayollarni himoya qilish, balki erkaklar uchun ham o‘ziga xos manfaatlarini taqdim qilish, barcha fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda muhim ahamiyatda ega hisoblanadi. Shuningdek, gender masalasida ta’limning ro‘li, yosh avlod ongida tenglik g‘oyalarini shakllantirish lozimligi, ommaviy axborot vositalarining ta’siri hamda mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish va rahbarlik lavozimlarida ayollar ishtirokining oshirilishi kerak. Maqolada shuningdek, ayollar faqat uy ishlariga mo‘ljallangan degan qarashlar yoki erkaklar zaiflikni ko‘rsatmasligi kerak degan fikrlar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ko‘rsatishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Gender, gender tengligi, ijtimoiy rol, gender siyosati, ijtimoiy adolat, ta’lim va gender, inson huquqlari, gender nazariyasi, ayollar ishtiroki, gender va madaniyat.

Аннотация: эта статья о содержании и формировании концепции пола, роли гендерной концепции и ее роли в современном обществе. Концепция, которая выражает социокультурный и духовный аспект гендерного человека. Гендерная мужская и женственность формируются через социальные и культурные факторы. В нашем обществе пол считается важным для предоставления уникальных интересов не только для защиты женщин, но и для обеспечения прав и свободы всех граждан. Участие в образовании в области пола, участие женщин в сознании образования, влияние равенства в умах эпохи поколения и равных возможностей на рынке труда должно быть увеличено. В статье также рассказывается, что восприятие того, что женщины должны не только для домашней работы или что мужчины не должны проявлять слабость, негативно показывают негативное развитие общества.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, социальная роль, гендерная политика, образование и пол, права человека, теория гендерной теории, участие женщин, пол и культура.

Annotation: This article is about the content and formation of the concept of gender, and the role of the gender concept and its role in modern society. A concept

that expresses the socio-cultural and spiritual aspect of the gender person. Gender-male and femininity is formed through social and cultural factors. In our society, the gender is considered important importance in providing unique interests not only to protect women, but also to provide the rights and freedoms of all citizens. The participation of education in the field of gender, the participation of women in the minds of education, the influence of equality in the minds of the age of-generation and equal opportunities in the labor market should be increased. The article also tells us that the perceptions that women should not only for household work or that the men should not show weakness will negatively show negative to the development of society.

Keywords: Gender, Gender equality, Social Role, Gender Policy, Education and Gender, Human Rights, Gender Theory, Women's Participation, Gender and Culture.

Kirish: Gender tushunchasi- bu jamiyatda erkak va ayol sifatida qaraladigan ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlар majmuasi. Biolgik jins, ya’ni erkak va ayol bo‘lish tug‘ma bo‘lsa, gender ijtimoiy konstruksiya bo‘lib, odamlar jamiyatda qanday rol o‘ynashi, qanday kiyim kiyishi, qanday gapirishi yokida qanday ishlar bilan shug‘ullanishi kabilarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida gender tushunchasi quyidagicha yoritilgan: Gender-ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy jihat bo‘lib, u jamiyatning barcha jabhalarida, masalan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim va fanda namoyon bo‘ladi, albatta. Mening fikrimcha, Gender tenglik- jamiyat tamoyili sifatida tenglikni ta’minalash umumiyligi tamoyilining ajralmas qismi. Gender tenglikni har ikkala jinsga birdek qo‘llaniladigan universal inson huquqlarining bir qismi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy jamiyatda inson huquqlari, ijtimoiy tenglik vaadolat masalalari juda muhim mavzular qatoriga kiradi deb o‘ylayman. Shu sababdan, gender tushunchasi va uning jamiyatdagi o‘rni haqida fikr yuritish muhim ahamiyatga egadir. “Gender” atamasi biologik jinsdan farqli bo‘lib, jamiyat tomonidan erkaklar va ayollarga yuklatilgan ijtimoiy, madaniy va psixologik rollarni bildiradi. Bu tushuncha insonlarning hayot tarzini, ta’limga bo‘lgan munosabatini, mehnat bozoridagi o‘rnini, siyosiy faolligini va oiladagi ma’sulyatini belgilovchi omil desak ham bo‘ladi. Gender tengligi nafaqat inson huquqlarini ta’minalash, balki jamiyatda barqaror taraqqiyot, adolatli boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashda ham muhim omil hisoblanadi. Dunyodagi ko‘plab rivojlangan davlatlar o‘z siyosiy va ijtimoiy tizimlarida gender tenglikka erishishga harakat qilib kelmoqda. Chunki, ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi-bu jamiyatning har bir a’zosi o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston singari, an’anaviy qadriyatlarni e’zozlovchi jamiyatlarda ham gender masalalariga e’tibor ortib

kelmoqda. Davlat siyosati, qonunchilik va ijtimoiy tashabbuslar orqali ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlashga bo‘lgan harakatlar kengayapti. Ammo lekin, gender tengligini tushunish va uni hayotga tatbiq qilish o‘ziga xos yondashuv va ko‘p qirrali yondashuvlarni talab qiladi, albatta.

Asosiy qism: Gender tengligi-inson huquqlari sohasidagi eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. BMT nizomida “Ayollar va erkaklar tengligi” mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro hujjatlarda ayollar va erkaklar o‘rtasida tenglik ham mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu deklaratsiyada “barcha insonlar erkin, qadr-qimmati va huquqlari bo‘yicha teng tug‘iladilar” va “har bir inson irqi, dini yoki boshqa maqomidan qat’iy nazar, ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklarga ega” ekanligi e’tirof qilingan. Mening fikrimcha, Gender tengligi faqatgina, ayollar uchun emas, balki erkaklar uchun ham muhim deb o‘layman. Agar gender tengligi bo‘lmasa, ba’zi guruhlar cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lishadi va bu jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun to‘sinqinlik qiladi. Inson huquqlarining asosiy qismi-gender tengligi deb o‘layman. Ayollarni boshqaruv, siyosat, iqtisodiyot va boshqa sohalarda yetakchilik pozitsiyalariga erishishgs, nafaqat ularning o‘z manfaatlariga xizmat qilish bilan birga, balki jamiyatning umumiylara qarashiga ham ijobjiy ta’sir qiladi. Jamiyatda shakllangan gender stereotiplari, ya’ni erkaklar va ayollar haqida qaramaqarshi tasavvurlar, ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Misol uchun, “erkaklar kuchli va mustahkam bo‘lishi kerak” yokida “ayollar faqat uyda bo‘lishi kerak” degan fikrlar jamiyatni to‘g‘ri tushunishdan chalg‘itadi va insinlarni o‘z istaklariga qarshi harakat qilishga undaydi. Ayollarni faqat uy-ro‘zg‘or va bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq ishlar bilan cheklash va ularning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini cheklanishiga olib keladi. Shu bilan birga, erkaklar ham jismoniy kuch ishlatish va oilaviy ma’sulyatlarni o‘z zimmasiga olishi yokida his-tuyg‘ularini ifodalash kabi normalar bilan chegaralanadi. XXI asrga kelib gender tengligi masalasi global miqyosda muhim ahamiya kasb qilib kelmoqda. Dunyodagi ko‘plab mamlakatlar qatorida, O‘zbekiston ham gender tengligini ta’minlashga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Misol qilib, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va faollar gender tengligi bo‘yicha turli xil dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, genderga asoslangan kamsitishning oldini olish uchun qonunchilikni takomillashtirmoqda. Jamiyatimizda gender tengligiga faqatgina qonunlar orqaligina ham erishib bo‘lmaydi. Bu masalani faqatgina, keng ijtimoiy o‘zgarishlar va jamiyatning ongini o‘zgartirish orqali hal qilishimiz mumkin deb o‘layman. Masalan, oila, ta’lim, ish joyi va boshqa sohalarda gender tengligini qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatdagi barcha a’zolar teng huquqlarga ega bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratish mumkin, albatta.

Jamiyat gender muvozanatni ta’minalash va barcha fuqarolarning to‘laqonli ishtiropi uchun sharoit yaratadi. Ayollarning faol siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga

jalb qilinishi jamiyatdagi innovatsion salohiyatini oshirish bilan birga, kambag‘allikni kamaytiradi va ijtimoiy adolatni ta’minlaydi deb o‘ylayman.

Fikr va takliflar:

1. Ta’lim tizimida gender tengligi bo‘yichsa maxsus darslar joriy qilinishi-yosh avlodni kichikligidan boshlab tenglik, hurmat va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash kelajakda sog‘lom jamiyat poydevorini yaratadi, albatta.

2. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda genderga oid stereotiplarni yo‘q qilish-media kuchli ta’sir vositasi bo‘lgani uchun undagi har bir obraz va mazmun ijtimoiy ongga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan gender tengligini targ‘ib qiluvchi kontentlarni yaratishimiz zarur.

3. Qonunchilikda gender tengligini mustahkamlash va amaliyotda nazorat qilish-ayollar va erkaklarning mehnat sharoitlari, ish haqi, rahbarlik imkoniyatlari tengligini ta’minlovchi qonunlar va farmonlarni hayotga joriy qilinishi kerak.

4. Erkaklarning ham gender muvozanatida faol ishtirok qilishini rag‘batlantirish-bu faqat ayollarga oid masala emas. Erkaklar ham gender tengligini rivojlantirishda faol bo‘lishi, oila va jamiyat hayotida ma’sulyatl bo‘lishi lozim.

5. Fuqarolik jamiyati va nodavlat tashkilotlarining rolini oshirilishi-genderga oid muammolarni aniqlash bilan birg, ularga yechim tioish va jamoatchilikni xabardor qilish Nodavlat notijorat tashkilotlari muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr va takliflar asosida harakat qilinsa, jamiyatda yanada adolatli va inson huquqlariga hurmat bilan yondashadigan, imkoniyatlar tengligi ta’milangan muhit shakllanadi deb o‘ylayman

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, gender tushunchasi zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u insonlarning huquqlari, imkoniyatlari va ijtimoiy rollarining tengligini ta’minlashga xizmat qiladi. Gender tengligi nafaqat adolat tamoyilining ifodasi bo‘lib, balki barqaror rivojlanish, demokratik qadriyatlar va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jamiyatda erkak va ayollar o‘rtasidagi teng huquqlikka asoslangan muhit yaratish orqaligina har bir insoning iqtidori to‘liq ochiladi va bu butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Afsuski, hali-haligacha ko‘plab sohalarda gender tengsizligi mavjud: ayollarning rahbarlik lavozimlariga tayinlanishidagi to‘silalar, erkaklarning ruhiy salomatligi yoki oilaviy muammolar haqida gapirishdan cho‘chishi va ayrim kasblarda faqat bir jins vakillari ustun deb hisoblanishini bunga misol qilsak bo‘ladi. Bunday holatlar faqat ayollar emas, balki erkaklarning ham erkin rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi deb o‘ylayman. Bu maqoladan shunday xulosaga kelish mumkin: gender tengligi- nafaqat bir guruh insonlar uchun, balki butun jamiyatning kelajagi uchun muhim qadriyat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova M. Gender sotsiologiyasi.-Toshkent:O‘zbekiston milliy Universiteti nashriyoti,2020.-214b.
2. Qodirova G. Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot.-Toshkent:Fan va texnologiya,2019.-176b.
3. Gender tenglik bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.-Toshkent.2024.-8b.
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://uzmarkaz.uz>